

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar – mart, dastlabki ma‘lumot)

2020 - yil yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2582,5** ming so‘mni tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan **26,5 %** ga oshdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)


Korxonalar va tashkilotlar soni

101,4 %



Xodimlar soni

101,7 %



Ish haqi fondi

128,6 %



O‘rtacha ish haqi


126,5 %



Ma‘lumot uchun: O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlarining respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan o‘zgarishi, % da


(2020 - yil yanvar- mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichidan sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati – **29,9** % ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar - **27,7** % ga, ta'lim sohasi - **19,1** % ga sezilarli darajada past bo‘ldi. Shu bilan birga bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati - **111,5** % ga, axborot va aloqa sohasi - **61,5** % ga respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(yanvar - mart oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2019 - yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. Ayniqsa bank, sug'urta, lizing va kredit-vositachilik faoliyatida - **46,7 %** ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - **32,6 %** ga, qurilish sohasida - **32,2 %** ga sezilarli o'sish kuzatildi.

2020 - yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha respublikadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichli hududlar

(respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan, % da)

	Jami	shu jumladan:					
		sanoat	qurilish	savdo	tashish va saqlash	bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish
O‘zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog‘iston Respublikasi				-23,5			
Andijon					-56,5		
Buxoro				-26,6			
Jizzax		-30,6	-36,3		-50,8		
Qashqadaryo	-21,6		-34,0	-25,6		-22,0	-22,7
Navoiy							
Namangan	-18,8	-35,1				-28,8	
Samarqand	-17,9			-27,3	-47,7	-22,0	
Surxondaryo		-23,6					
Sirdaryo		-40,9			-49,7	-26,6	
Toshkent					-52,7		-4,8
Farg‘ona	-17,2		-32,6				-6,6
Xorazm			-26,4				
Toshkent sh.							

Hududlarda ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha respublikadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan eng past ko‘rsatkichlar kuzatildi. Jumladan, sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha –

Sirdaryo (40,9 %), Namangan (35,1 %), Jizzax (30,6 %) va Surxondaryo (23,6 %) viloyatlarida, qurilish iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha - Jizzax (36,3 %), Qashqadaryo (34,0 %), Farg‘ona (32,6 %) va Xorazm (26,4 %) viloyatlarida, tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha – Andijon (56,5 %), Toshkent (52,7 %), Jizzax (50,8 %) va Sirdaryo (49,7 %) viloyatlarida hamda bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida – Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida 20 % dan ko‘p kamayish kuzatildi.

Ta‘lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar - mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)



Ta‘lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2089,2** ming so‘mni tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan **23,2 %** ga oshgan.




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar- mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri - **138,4 %**, Sirdaryo viloyati - **101,9 %**, Navoiy viloyati - **100,5 %** va Toshkent viloyati - **100,1 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, 10 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Surxondaryo viloyati - **95,2 %**, Farg'ona viloyati - **92,0 %**, Xorazm viloyati - **91,9 %** hamda Qashqadaryo viloyati - **87,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda






Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar- mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda




Qurilish sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Namangan viloyati - **135,0 %**, Navoiy viloyati - **131,6 %**, Andijon viloyati - **128,5 %**, Toshkent viloyati - **114,8 %**, Toshkent shahri - **109,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, respublikaning 9 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Buxoro viloyati – **77,0 %**, Xorazm viloyati – **73,6 %**, Farg'ona viloyati - **67,4 %**, Qashqadaryo viloyati – **66,0 %**, Jizzax viloyati - **63,7 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda






Savdo sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar- mart; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)



O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda




Savdo sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahri - **121,1 %**, Sirdaryo - **109,6 %**, Jizzax - **108,3 %** viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga, respublikaning 11 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari Namangan viloyati - **80,0 %**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - **76,5 %**, Qashqadaryo viloyati - **74,4 %**, Buxoro viloyati - **73,4 %** hamda Samarqand viloyati - **72,7 %** hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar- mart; qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati - **124,3 %**, Toshkent shahri - **114,2 %**, Qoraqalpog'iston Respublikasi - **108,1 %**, Andijon - **103,0 %** va Toshkent - **101,3 %** viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, respublikaning 9 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Farg'ona viloyati - **77,7 %**, Surxondaryo viloyati - **76,4 %**, Jizzax viloyati - **69,4 %**, Namangan viloyati - **64,9 %** hamda Sirdaryo viloyati - **59,1 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



(2020 - yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri - **118,0 %**, Buxoro viloyati - **112,6 %**, Qoraqalpog'iston Respublikasi - **109,1 %**, Sirdaryo viloyati - **108,5 %** hamda Xorazm viloyati - **106,6 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 9 ta hududida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Namangan viloyati – **96,9 %**, Jizzax viloyati - **96,5 %**, Toshkent viloyati - **95,2 %**, Farg'ona viloyati - **93,4 %** hamda Qashqadaryo viloyati - **77,3 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





Tashish va saqlash sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar- mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)



O‘rtacha oylik ish haqi,
ming so‘mda




Tashish va saqlash sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqi, eng yuqori ko‘rsatkichi Xorazm viloyatida - **131,6 %** Toshkent shahrida - **118,5 %**, nisbatan yuqori ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida - **106,2 %** kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatning 11 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi respublika darajasidan past bo‘ldi.

Tashish va saqlash sohasida respublika ko‘rsatkichidan sezilarli darajada past o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi Samarqand viloyatida - **52,3 %**, Sirdaryo viloyatida - **50,3 %**, Jizzax viloyatida - **49,2 %**, Toshkent viloyatida - **47,2 %** hamda Andijon viloyatida - **43,5 %** kuzatildi.

O‘rtacha oylik ish haqi,
ming so‘mda






Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020 - yil yanvar - mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari)



O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko‘rib chiqilganda eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida - **124,1 %**, Navoiy viloyatida - **101,9 %** hamda Jizzax viloyatida – **101,0 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi respublikaning 11 ta hududida respublika o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Ish haqining sezilarli past ko‘rsatkichlari Toshkent – **79,1 %**, Qashqadaryo - **78,0 %**, Samarqand - **78,0 %**, Sirdaryo - **73,4 %** hamda Namangan – **71,2 %** viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari

(2020 - yil yanvar - mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

Respublika bo'yicha 2020 - yil yanvar-mart oylarida 2019 - yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **46,7 %** ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **32,6 %** ga, qurilishda **32,2 %** ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **29,1 %** ga, savdoda **27,2 %** ga, tashish va saqlashda **24,9 %** ga, sanoatda **23,9 %** ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olishda **23,8 %** ga, ta'lim sohasida **23,2 %** ga, axborot va aloqada **22,2 %** ga o'sganligi kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **1969,7** ming so'mni, fevral oyida **2125,4** ming so'mni, mart oyida esa **2172,2** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **23,2 %** ga o'sdi.





Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **3330,3** ming so'mni, fevral oyida **3382,1** ming so'mni, mart oyida esa **3836,8** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **23,9 %** ga o'sdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **1723,8** ming so'mni, fevral oyida **1801,0** ming so'mni, mart oyida esa **1909,0** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,1 %** ga o'sdi.





Savdo faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Savdo sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **2399,4** ming so'mni, fevral oyida **2355,0** ming so'mni, mart oyida esa **2819,9** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **27,2 %** ga o'sdi.




Qurilish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **2921,3** ming so'mni, fevral oyida **3029,7** ming so'mni, mart oyida esa **3199,6** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **32,2 %** ga o'sdi.





Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **4512,8** ming so'mni, fevral oyida **4923,8** ming so'mni, mart oyida esa **6960,2** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **46,7 %** ga o'sdi.




Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning yanvar oyida **3176,7** ming so'mni, fevral oyida **3382,6** ming so'mni, mart oyida esa **3562,7** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24,9 %** ga o'sdi.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, % da



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **3737,6** ming so'mni, Navoiy viloyatida **3283,7** ming so'mni va Toshkent viloyatida **2702,5** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida **2150,8** ming so'mni, Farg'ona viloyatida **2138,0** ming so'mni, Samarqand viloyatida **2119,3** ming so'mni, Namangan viloyatida **2098,1** ming so'mni va Qashqadaryo viloyatida **2025,6** ming so'mni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan.

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yuridik shaxslarda
ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2019 - yil yanvar - mart	2020 - yil yanvar- mart	O‘sish sur‘ati,
O‘zbekiston Respublikasi	2041,7	2 582,5	126,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1989,7	2 428,9	122,1
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1870,4	2 396,5	128,1
Buxoro	1917,3	2 398,1	125,1
Jizzax	1770,7	2 174,7	122,8
Qashqadaryo	1751,1	2 025,6	115,7
Navoiy	2506,2	3 283,7	131,0
Namangan	1707,9	2 098,1	122,8
Samarqand	1725,3	2 119,3	122,8
Surxondaryo	1702,6	2 150,8	126,3
Sirdaryo	1796,6	2 218,1	123,5
Toshkent	2272,3	2 702,5	118,9
Farg‘ona	1682,2	2 138,0	127,1
Xorazm	1733,4	2 202,9	127,1
Toshkent sh.	2825,1	3 737,6	132,3

Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdorlari Toshkent shahrida respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan **144,7 %** ni, Navoiy viloyatida **127,2 %** ni va Toshkent viloyatida **104,6 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, Surxondaryo viloyatida **83,3 %** ni, Farg‘ona viloyatida **82,8 %** ni, Samarqand viloyatida **82,1 %** ni, Namangan viloyatida **81,2 %** ni va Qashqadaryo viloyatida **78,4 %** ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2020 - yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, 2020 - yilning 1 - fevralidan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 679 330 so‘mni tashkil etadi.

Ma‘lumot uchun: "O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

**Davlat statistika qo‘mitasining
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (71) 230-80-66, 230-81-26